

## HUQUQ FANINING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Mamatova Nilufar Abdullajonovna

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada huquq fani haqida shuningdek huquq fanining jamiyat taraqqiyoti hamda barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kunda huquq sohasi ham jamiyatning eng muhim tizimi hisoblanadi. Avvalo, ushbu soha rivoji jamiyatning yuksalishi, taraqiy etishi uchun muhim tayanchdir. Davlat rivojlangan sari, har xil tengsizliklar paydo bo'lishi mumkin va bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishni eng samarali yo'li bu-huquq tizimi rivojlantirish hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Davlat, huquq ("haq", "haqiqat"),adolat, qonun, hokimiyat, masala, metodika, demokratiya, ijtimoiy huquq, tartib-intizom, barqarorlik, Konstitutsiya, siyosiy hurfikrlilik (plyuralizm).*

### Kirish

Insoniyat qadim zamonalardan buyon davlat va huquq masalalariga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lib keladi. Davlat hokimiyati hamda huquqiy hayot hodisalari hamma zamonlarda alohida dolzarblik kasb etib kelganligi barchaga ayon. Bu vogeliklar mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Biz yaqin o'tm ishimizda sinfi hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinfiy kurash, sinfiy raqiblarni yengish vositasiga aylantirgan edik. Mustaqillik tafakkurining mahsuli sifatida bu borada ham yangiclia nazariy qarashlar qaror topdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov talqinida davlat va huquq yangicha tavsifga ega bo'ldi. «Demokratiya sharoitida, — deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, — davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi. Huquqning o'ziga esa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, e Huquq o`qitish metodikasi bo`lajak o`qituvchilarga dars berish yo'llarini o`rgatadi. Fanni o`qitish sifatini belgilashda metodika fani katta o`rin egallaydi. Metodika bilan qurollangan har bir o`qituvchi to`g`ri, ijodiy va samarali ishlash imkoniyatiga ega bo`ladi. Huquq fani o`qituvchisi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol kishi qilib tarbiyalash singari katta va ma`suliyatli vazifalarni yuklaydi. Huquqni o`qitish va tarbiyalash metodikasi o`quvchilarga nimani o`qitish va qanday o`rgatish degan savolga javob berib: birinchidan, o`qituvchilarga fan asoslarini singdiradi; ikkinchidan, ularni o`rgatish metodlarini aniqlab beradi. Davlat va huquqning kelib chiqishi to`g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar,

iqtisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan. "Huquq" iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, "haq", "haqiqat" so'zlaridan olingandir. Huquqning paydo bo'lishida asosan uchta bosqichni ajratib ko'rasatish mumkin.

Birinchi bosqich - huquqning paydo bo'lish bosqichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.

Ikkinchi bosqich – ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to'liq o'rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.

Uchinchi bosqich – bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya'ni kodifikatsiyalashishidir. Hozirgi kunda huquq quyidagi ma'nolarda ko'llaniladi: Birinchidan, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi; ikkinchidan, huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir; uchinchidan, huquq ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o'zida mujassamlashtiradi. Aflatun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy hamda shartli huquqlarga ajratgan. "Siyosiy huquq" - tabiiy huquq va shartli huquq qismlaridan iborat: "Tabiiy huquq"- tan olish yoki tan olmaslikdan qat'i nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir. "Shartli huquq" - insonlar tomonidan ularning xohish-irodasiga ko'ra o'rnatiladigan qoidalar majmuidir. Qadimgi Rim mutafakkirlari huquqni yaxshilik, halol yashash, har kimga o"ziga munosibini berish, o"zgalarga zarar yetkazmaslik, ezgulik vaadolat san'atidir, deb ta'riflaydi.

Huquqni zamon talablari asosida to'g'ri tushunish amaliy faoliyat uchun g'oyat muhim va zarurdir. Shu bois huquqqa davlat arboblari ham katta e'tibor berib, uni tushunishda o'z munosabatlarni ifodalaydilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqqa shunday ta'rif bergan: "Huquq ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi"dir. Huquq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma. Huquq ko'p qirrali tushunchadir, shuning uchun uning hamma jihatlarini qamrab olishning imkoniy yo'qdir. Shunday bo'lsada, uning tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatish mumkin: huquqning barcha uchun majburiyligi; huquqning qonun va boshqa aniq shakllarda ifodalangan bo'lishi; huquqning davlat tomonidan o'rnatilishi, muhofaza qilinishi; huquqning ijtimoiy tartib-intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi; huquqning sub'ektiv va ob'ektiv huquqlarga bo'linishi va sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilishi; huquq ehtiroslarni jilovlash vositasi ekanligi .

Bugungi o'zbek jamiyati o'zi uchun huquqiy davlat, inson huquqlari va shaxs erkinligi, demokratik fuqarolik jamiyati, siyosiy hurfikrlilik (plyuralizm), hokimiyatlar taqsimlanishi, qonun ustuvorligi, mustaqil sud hokimiyati kabi fundamental

tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Tan olish lozimki, jamiyat ijtimoiy siyosiy va ma’naviy hayotini zamonaviy marifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o‘ynaydi. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mavjud bo‘lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko‘p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institatlarning faoliyatiga bog’liqdir. Mustaqillik yillari mobaynida yurtimizda demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish yo‘lida huquqiy jihatdan ko‘pgina ishlar qilindi. Respublikada davlat idoralarining, shu jumladan, huquqiy muassasalarning izchil tizimi shakllantirilmoqda. Demokratik institatlarni hayotimizga olib kiruvchi va bozor munosabatlarini ma’rifiy shaklda joriy etishga imkon beruvchi qonunlar majmui yaratilmoqda. Hozirgi vaqtida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi, demokratik siyosiy tizim tarkibiy tuzilmalarini ham fuqarolik jamiyatni bo‘g‘inlarini vujudga keltiruvchi, inson huquqlari kafolatlari tizimini qaror toptiruvchi, bir so‘z bilan aytganda, butun ijtimoiy-siyosiy hayotimizning huquqiy negizini barpo etadigan 300 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi o‘tgan mustaqil rivojlanish davrimizdagi qonun chiqarish faoliyatining gultoji bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvarda “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, bugungi kunda ta lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashgulotlar zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayangan holda, o‘t kazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’minlanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali oqitish davr talabidir.

**Xulosa:** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, huquq fani jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, inson huquqlarini himoya qilish vaadolatni qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Huquq jamiyatning har bir a’zosiga o‘z huquq va majburiyatlarini anglash imkonini beradi, qonun ustuvorligini ta’minlaydi va nizolarniadolatli hal qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, huquq fani fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish orqali barqarorlikni ta’minalashga hissa qo‘sadi. Huquqiy bilimga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari o‘z huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etib, davlat va jamiyat rivojiga hissa qo‘sadi. Shuningdek huquq fani insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita bo‘lib, u jamiyatda tinchlik, barqarorlik vaadolatni ta’minalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি ma’ruzasi. – T.: —O‘zbekiston, 2017.
2. Kenenova I. Xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy huquqini o‘qitish metodikasi va metodikasi / I. Kenenova // Qiyosiy konstitutsiyaviy sharh.-2009. - N 6.-S. 66-71.
3. Axundova S.L. Fanlararo aloqalar "Dunyoni bilish" fanining integrativ imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi sifatida / Axundova S. L. // Zamonaviy fanning dolzarb muammolari.-2009. - N 2.-S. 52-56.
4. Urumov A.V. "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o‘qitishning didaktik tamoyillari / Urumov A. V. // Yuridik ta’lim va fan.-2010. - N 3.-S. 25-29.
5. Олий таълим. Меъёрий хужжатлар тўплами. –Т.: Шарқ, 2001. – Б.4.  
*Internet Va Ijtimoiy Tarmoqlardagi Resurslar*
6. <https://t.me/shmirziyoyev/16581?single>
7. <https://t.me/shmirziyoyev>
8. <https://t.me/shmirziyoyev/20260>